O‘ZBEK TOPONIMLARINING SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Gadaymurodova Orasta Asliddin qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
1- kurs magistranti
e-mail: gadaymurodovao@gmail.com
Ergasheva Muxlisa Faxriddin qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
1-kurs magistranti
e-mail: muxlisaergasheva067@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek toponimlarining semantik xususiyatlari va lingvokulturologik mazmuni o‘rganilgan. Geografik nomlarning shakllanishida tabiiy-geografik muhit, o‘simlik va hayvonot dunyosi, suv manbalari, etnik tarkib hamda tarixiy-madaniy omillarning o‘rni tahlil qilingan. S.Qorayev va Z.Do‘simovning toponimika sohasidagi ilmiy ishlari nazariy asos sifatida olingan. Xorazm hududi toponimlariga doir tadqiqotlar hamda o‘zbek joy nomlarining tarkibiy-semantik xususiyatlari haqidagi ilmiy qarashlar asosida ayrim nomlarning nominativ va madaniy vazifalari yoritilgan. Tadqiqotda tavsifiy, struktur-semantik, qiyosiy va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanilgan. Tahlil natijasida toponimlarning nafaqat geografik obyektlarni nomlash, balki xalqning tarixiy xotirasi, tabiatni idrok etishi va madaniy tajribasini saqlashda ham muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan. Shuningdek, joy nomlarining etimologiyasini aniqlashda xalq orasida tarqalgan izohlarni tarixiy-lisoniy dalillardan farqi izohlangan.

Kalit so‘zlar: toponim, toponimika, semantika, lingvokulturologiya, etnotoponim, gidronim, oykonim, etimologiya, madaniy xotira, milliy dunyoqarash.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКИХ ТОПОНИМОВ

Аннотация. В статье рассматриваются семантические особенности и

лингвокультурологическое содержание узбекских топонимов. Анализируется роль природно-географической среды, растительного и животного мира, водных объектов, этнического состава и историко-культурных факторов в формировании географических названий. Теоретической основой исследования послужили научные труды С. Караева и З. Дусимова в области топонимики. На материале исследований топонимии Хорезмского региона и научных работ о структурно-семантических особенностях узбекских географических названий раскрываются номинативные и культурные функции отдельных топонимов. В исследовании применяются описательный, структурно-семантический, сравнительный и лингвокультурологический методы анализа. Обосновывается, что топонимы выполняют не только функцию обозначения географических объектов, но и участвуют в сохранении исторической памяти народа, представлений о природе и культурного опыта. Особое внимание уделяется необходимости разграничения народных этимологических объяснений и научно обоснованных историко-лингвистических интерпретаций.

Ключевые слова: топоним, топонимика, семантика, лингвокультурология, этнотопоним, гидроним, ойконим, этимология, культурная память, национальное мировоззрение.

SEMANTIC AND LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF UZBEK TOPONYMS

Abstract. This article examines the semantic features and linguocultural content of Uzbek toponyms. It explores the role of the natural environment, flora and fauna, water resources, ethnic composition, and historical and cultural factors in the formation of geographical names. The theoretical framework draws on the toponymic studies of S. Qorayev and Z. Do‘simov. Research on the toponymy of the Khorezm region and the structural-semantic characteristics of Uzbek place names is used to discuss the naming and cultural functions of selected examples. The study employs descriptive, structural-semantic, comparative, and linguocultural methods. The analysis demonstrates that toponyms serve not only to identify geographical features but also to preserve aspects of

collective historical memory, perceptions of nature, and cultural experience. Particular attention is given to distinguishing folk etymologies from historical-linguistic interpretations supported by evidence.

Keywords: toponym, toponymy, semantics, linguoculturology, ethnic toponym, hydronym, oikonym, etymology, cultural memory, national worldview.

KIRISH

Til xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti va madaniy dunyoqarashini aks ettiruvchi murakkab tizimdir. Uning lug‘at tarkibidagi geografik nomlar, ya’ni toponimlar, muayyan hududni nomlash va boshqa geografik obyektlardan farqlash vazifasini bajarish bilan birga, xalqning tarixiy xotirasini o‘rganishda ham muhim manba hisoblanadi. Joy nomlarining tarkibida tabiiy muhit, qadimgi leksik qatlamlar, etnik guruhlar, xo‘jalik faoliyati va madaniy aloqalarga doir izlar saqlanadi.

O‘zbek toponimiyasi tarixiy va lisoniy jihatdan rang-barangligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston hududida turkiy, forsiy va arabiy til unsurlarining uzoq muddatli o‘zaro ta’siri geografik nomlarning shakllanishida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli toponimlarni faqat hozirgi o‘zbek tilidagi ma’nolari asosida izohlash ayrim hollarda ularning tarixiy mazmunini to‘liq ochib bera olmaydi. S.Qorayevning “Toponimika” asari geografik nomlarning shakllanish qonuniyatlari va O‘zbekiston toponimiyasini o‘rganishda muhim nazariy manbalardandir.[1]

Mavzuning dolzarbligi geografik nomlarning lisoniy xususiyatlarini madaniy mazmun bilan birgalikda o‘rganish zarurati bilan belgilanadi. Toponimning tarkibiy qismlarini aniqlash uning semantik xususiyatlarini tushunishga yordam bersa, lingvokulturologik yondashuv shu nom bilan bog‘liq tarixiy tajriba, jamoaviy xotira va milliy tasavvurlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek toponimlarining semantik xususiyatlarini aniqlash, ularning shakllanishiga ta’sir etgan omillarni tavsiflash hamda geografik nomlarda namoyon bo‘ladigan lingvokulturologik mazmunni ochib berishdan iborat. Ushbu maqsad

[1] S.Qorayev. Toponimika: O‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2006. – 320 b.

doirasida toponimlarning asosiy semantik guruhlarini ajratish, muayyan joy nomlarining tarkibiy xususiyatlarini tahlil qilish va ularning tarixiy-madaniy vazifalarini izohlash ko‘zda tutiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA NAZARIY ASOSLARI

Toponimika atoqli otlarning geografik obyektlarni nomlash bilan bog‘liq xususiyatlarini, ularning kelib chiqishi, semantikasi, tuzilishi va tarixiy taraqqiyotini o‘rganuvchi sohadir. Toponimlar onomastikaning muhim tarkibiy qismi sifatida tilshunoslik, tarix, geografiya va etnografiya bilan uzviy aloqada hisoblanadi.

O‘zbek toponimikasining rivojlanishida Suyun Qorayevning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Olimning Toponimika qo‘llanmasida geografik nomlarning ilmiy-nazariy asoslari, toponimlarning shakllanish xususiyatlari va O‘zbekiston hududidagi joy nomlarini o‘rganish masalalari yoritilgan va olim kitobining boshida shunday deydi:

”Dastlabki topo- nimlar oddiy turdosh otlardan farq qilmaydigan sodda nomlar edi. Atrof tabiiy muhiti haqidagi tasawur kengayib, bir buloqni ikkinchisidan, bir o‘tloqni boshqasidan, yaqindagi tepalikni narigisidan farqlash ehtiyoji tug‘ila boshladi”.[2] Mazkur manba toponimlarni tasniflash, ularning tarkibiy qismlarini ajratish va geografik nomlarning kelib chiqishini o‘rganish uchun nazariy asos yaratib berdi.

Zaribboy Do‘simovning “Xorazm toponimlari” monografiyasi hududiy toponimiyani tarixiy-lisoniy jihatdan tadqiq etishning muhim namunalaridan biridir.[3] Olimning tadqiqotlari toponimlarning leksik-semantik xususiyatlari, nomlash tamoyillari va tarkibiy tuzilishini o‘rganish bilan ahamiyatlidir. Keyingi tadqiqotlarda ham Do‘simovning o‘zbek toponimikasi, xususan, Xorazm hududi nomlarini tasniflash va etimologik jihatdan izohlashga qo‘shgan hissasi qayd etiladi.

Mazkur maqolada tavsifiy, struktur-semantik, qiyosiy va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi. Tavsifiy usul orqali toponimlarning umumiy xususiyatlari yoritildi. Struktur-semantik tahlilda nomlarning tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi ma’no

[2] S.Qorayev. Toponimika. – T.: “Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2006. – B 3.

[3] Z.Do’simov. Xorazm toponimlari. Toshkent: Fan, 1985. – 104 b.

munosabatlariga e’tibor qaratildi. Qiyosiy usul nomlarning tabiiy-geografik va tarixiy-madaniy belgilarini o‘zaro solishtirishga xizmat qildi. Lingvokulturologik tahlil esa joy nomlarining xalq xotirasi, tabiiy muhitni idrok etish va madaniy tajriba bilan bog‘liq jihatlarini izohlash uchun qo‘llanildi.

Tadqiqot materiallari sifatida S. Qorayev va Z. Do‘simovning toponimikaga oid ishlari, shuningdek, Xorazm viloyatining tabiiy sharoiti bilan bog‘liq joy nomlarini o‘rgangan ilmiy maqola va tadqiqotlar olindi. Maqoladagi misollar illustrativ tahlil uchun tanlangan bo‘lib, ular barcha o‘zbek toponimlariga tegishli universal qonuniyat sifatida talqin qilinmaydi.

O‘ZBEK TOPONIMLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Toponimlarning semantik xususiyatlari, avvalo, nomlash motivi bilan belgilanadi. Nomlash motivi geografik obyektning muayyan belgisiga asoslangan bo‘lib, bunday belgilar tabiiy muhit, rang, relyef, suv manbalari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, etnik guruhlar yoki inson faoliyati bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Tabiiy-geografik belgilar bilan bog‘liq toponimlar. O‘zbek toponimiyasida tabiiy muhitni ifodalovchi nomlar muhim qatlamni tashkil etadi. Tabiiy obyektning rangi, shakli, joylashuvi yoki boshqa o‘ziga xos belgisi uning nomlanishiga asos bo‘lishi mumkin. Masalan, ***Qiziltepa*** nomi tarkibida rang bildiruvchi *qizil* sifati va relyef shaklini anglatadigan *tepa* oti mavjud. Tarkibiy jihatdan bu nom rang va geografik obyekt belgisining birikishi asosida tahlil qilinadi. Shunga o‘xshash tarzda ***Oqtosh*** nomi *oq* va *tosh* qismlaridan tashkil topgan. Bunda rang bildiruvchi komponent geografik obyektni tavsiflovchi belgi vazifasini bajarishi mumkin. Biroq ushbu tarkibiy tahlil nomning tarixiy kelib chiqishini to‘liq isbotlamaydi. Muayyan obyekt nima sababdan aynan shunday atalganini aniqlash uchun uning joylashuvi, tarixiy qaydlari va mahalliy nomlash an’analarini ham o‘rganish lozim bo’ladi. Xorazm viloyatining tabiiy sharoiti bilan bog‘liq toponimlar haqidagi tadqiqotlarda o‘simlik va hayvonot dunyosi, iqlim xususiyatlari hamda geografik muhit bilan aloqador nomlar tahlil qilingan. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar tabiatga oid leksik birliklarning geografik nomlar tarkibida saqlanishini

ko‘rsatadi. Tabiiy muhit bilan bog‘liq nomlar xalqning atrof-muhitni kuzatish tajribasi va geografik obyektlarni farqlash ehtiyoji bilan izohlanadi.

Tabiatga asoslangan toponimlarning lingvokulturologik ahamiyati shundaki, ular inson va makon o‘rtasidagi munosabatni namoyon qiladi*(Qizilqum, Qoratov, Qoradaryo kabi).* Shuningdek, hayvon va qushlar bilan bog‘liq joy nomlari ham mavjud. Masalan, *Baliqli, Laylakxona, Qarg’atepa, Chigirtkali, Ayg’irtepa, Burgutqal’a* kabilar va bu joy nomlari mahalliy aholi tomonidan avval o‘sha hududda shu hayvon yoki qushlar qo‘nim topgan manzil deb qaraladi. Demak, muayyan hududdagi o‘simlik, hayvon, tuproq yoki suv bilan bog‘liq nomlar shu hududning tabiiy sharoitini o‘rganishda yordamchi manba vazifasini bajarishi mumkin. Shu bilan birga, toponim asosida qadimgi ekologik sharoit haqida xulosa chiqarishda tarixiy va geografik ma’lumotlar bilan qiyoslash zarur.

Suv obyektlari bilan bog‘liq toponimlar. Suv manbalari Markaziy Osiyo xalqlarining xo‘jalik faoliyati va manzilgohlar rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Daryo, kanal, ariq, ko‘l va boshqa suv obyektlarining nomlari ***gidronimlar*** deb ataladi. Gidronimlar hududning tabiiy sharoitini tavsiflash bilan birga, tarixiy suv xo‘jaligi va aholi joylashuvi bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘rganishda ham ahamiyatlidir. Masalan, ***Bo‘zsuv*** nomida suv komponenti mavjud bo‘lib, u nomning suv obyekti bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Biroq *bo‘z* qismining tarixiy ma’nosini faqat hozirgi o‘zbek tilidagi ma’nolar asosida aniqlash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bunday nomlarni ilmiy izohlashda qadimgi yozuv shakllari, hududiy talaffuz xususiyatlari va tarixiy manbalar tekshirilishi kerak.

Gidronimlarning madaniy mazmuni suvning xalq hayotidagi amaliy ahamiyati bilan bog‘liq. Sug‘orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda suv manbalari atrofida manzilgohlarning shakllanishi va xo‘jalik faoliyatining tashkil topishi geografik nomlarning vujudga kelishiga ta’sir etgan bo‘lishi mumkin. Shu sababli gidronimlarni o‘rganish faqat tilshunoslik doirasida emas, balki tarixiy geografiya va etnografiya bilan hamkorlikda olib borilishi lozim.

O‘simlik va hayvonot dunyosi bilan bog‘liq toponimlar. Toponimlarning muhim semantik guruhlaridan biri o‘simlik va hayvon nomlari asosida shakllangan geografik nomlardir. O‘simlik nomlari bilan bog‘liq toponimlar ***fitotoponimlar****(Olmazor, Bodomzor,*

Yakkatut, Qatortol, Lolazor, Qo‘shterak va hk.), hayvon nomlari bilan bog‘liq toponimlar esa ***zootoponimlar****(Bo‘rijar, Eshakbuloq, Palangdara, Kaftarxona, Qoplonqir kabilar)* sifatida tasniflanadi.

Mirali Mirakmalov va Behzod Urazbayevning Xorazm viloyatidagi fauna, flora va iqlim xususiyatlari bilan bog‘liq toponimlarga bag‘ishlangan tadqiqotida *To‘g‘ay, Yekaliko‘l, Yekato‘rang‘il, Oyoqbog‘ va Shog‘olqal’a* kabi nomlar muhokama qilingan. Ushbu misollar geografik nomlarning tabiiy muhit, o‘simliklar va hayvonot dunyosi bilan aloqasini o‘rganish uchun material bo‘lib xizmat qiladi.[4]

Mazkur nomlarni lingvokulturologik tahlil qilishda ularning tarkibiy qismlarini aniqlash bilan cheklanib qolmaslik kerak. Nomning muayyan o‘simlik yoki hayvon bilan bog‘liqligini asoslash uchun hududning tabiiy xususiyatlari, mahalliy leksika va tarixiy ma’lumotlar birgalikda tekshirilishi lozim bo‘ladi. Ayniqsa, tarixiy nomlarda uchraydigan ayrim so‘zlarning bugungi ma’nosi qadimgi ma’nosi bilan to‘liq mos kelmasligi ko‘rishimiz mumkin.

O‘simlik va hayvonot dunyosiga oid nomlarning mavjudligi xalqning tabiatni kuzatish tajribasi va atrof-muhit bilan munosabatini anglashga yordam beradi. Biroq bunday nomlarni faqat madaniy ramz sifatida talqin qilish ham yetarli emas, balki, ularning geografik va tarixiy asoslari ham hisobga olinishi zarurdir.

Etnik va tarixiy omillar bilan bog‘liq toponimlar. Ayrim geografik nomlar etnik guruhlar, urug‘lar, qabilalar yoki tarixiy shaxslarning nomlari bilan bog‘liq holda shakllangan. Etnik guruh nomidan hosil bo‘lgan toponimlar **etnotoponimlar** deb yuritiladi. Ular aholi joylashuvi, etnik aloqalar va tarixiy jarayonlarni o‘rganishda muhim manba bo‘lishi mumkin. Bunga misol sifatida *Arabqishloq, Turkmanobod, Nayman, Mang‘it, Qo‘ng‘irot* kabi joy nomlarini keltira olamiz. Biroq etnotoponimlarni aniqlashda shakliy o‘xshashlikning o‘zi yetarli dalil emas. Muayyan joy nomining urug‘ yoki qabila nomidan kelib chiqqanini asoslash uchun tarixiy hujjatlar, aholi tarkibi haqidagi ma’lumotlar va hududiy manbalar qiyoslanadi.

[4] Mirakmalov M. T., Urazbayev B. B. Xorazm viloyatining fauna va florasi, iqlim xususiyatlari bilan bog‘liq toponimlari. – 2022. – № 2.

Shuningdek, tarixiy shaxslar nomi bilan atalgan geografik obyektlar ham alohida o‘rganiladi. Bunday nomlar *antroponimlar* asosida shakllangan toponimlar bilan bog‘liq bo‘lib, muayyan shaxsning tarixiy xotiradagi o‘rnini aks ettirishi mumkin(*Navoiy, Beruniy, Bobur va hk*). Shu tariqa toponimlar hududiy nomlash vositasi bo‘lish bilan birga, tarixiy va ijtimoiy munosabatlarning izlarini saqlab qoladi.

TOPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK MAZMUNI

Lingvokulturologik yondashuv til birliklarini xalqning madaniy tajribasi, tarixiy xotirasi va dunyoqarashi bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Toponimlar ushbu yondashuv uchun muhim materialdir, chunki ular geografik obyektlarni nomlash bilan birga, vaqt o‘tishi davomida tarixiy va madaniy mazmun kasb eta oladi. *Samarqand* va *Buxoro* kabi tarixiy shaharlarning nomlari bunga misol yaqqol misoldir. Bugungi madaniy tasavvurda *Samarqand* nomi tarixiy me’morchilik, ilm-fan, savdo aloqalari va madaniy meros bilan bog‘lanadi. *Buxoro* nomi ham tarixiy shahar muhiti, ilmiy an’analar va me’moriy yodgorliklar haqidagi tasavvurlarni uyg‘otadi. Bu mazmunlar nomlarning hozirgi lug‘aviy tarkibidan bevosita kelib chiqmaydi; ular tarixiy tajriba va jamoaviy xotira natijasida shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, toponimning etimologik ma’nosi va madaniy konnotatsiyasini farqlash zarur. Etimologik tahlil geografik nomning tarixiy kelib chiqishi va dastlabki ma’nosini aniqlashga qaratiladi. Madaniy konnotatsiya esa nom bilan bog‘liq qo‘shimcha tasavvurlar, qadriyatlar va hissiy munosabatlarni qamrab oladi. Ushbu ikki qatlam o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin, lekin farqlidir. Masalan, tarixiy shahar nomining madaniy mazmuni yozma manbalar, tarixiy obidalar, badiiy matnlar va jamoaviy xotira orqali boyib boradi. Shu bilan birga, mazkur nomning etimologiyasini aniqlash uchun alohida tarixiy-lisoniy dalillar talab qilinadi. Demak, nomning bugungi madaniy ahamiyati uning dastlabki ma’nosi haqidagi ilmiy xulosa o‘rnini bosa olmaydi.

Toponimlarning lingvokulturologik xususiyatlari xalq etimologiyasi hodisasida ham ko‘rinadi. Xalq etimologiyasi — kelib chiqishi unutilgan yoki tushunarsiz bo‘lib qolgan so‘z va nomlarni kishilarning o‘zlariga tanish so‘zlar yordamida izohlashga moyilligi. Bunday izohlar mahalliy jamoaning nomni qanday anglashini ko‘rsatishi mumkin. Shu

sababli ular madaniy material sifatida qimmatli, biroq tarixiy etimologiya sifatida qabul qilinishi uchun mustaqil dalillar bilan tasdiqlanishi kerak.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbek toponimlarini semantik va lingvokulturologik jihatdan o‘rganish natijasida ularni tahlil qilishda bir-biri bilan bog‘liq, ammo farqlanishi zarur bo‘lgan uchta asosiy qatlam mavjudligi ko‘rinadi.

Birinchisi — nominativ-semantik qatlam. Bu qatlamda toponimning qanday geografik obyektni anglatishi, tarkibiy qismlari va nomlash motivi aniqlanadi. Qiziltepa va Oqtosh kabi nomlar tarkibidagi so‘zlar asosida dastlabki struktur-semantik tahlilni amalga oshirish mumkin.

Ikkinchisi — tarixiy-etimologik qatlam. Bu bosqichda nomning qadimgi shakllari, ehtimoliy til manbalari, fonetik o‘zgarishlari va tarixiy qaydlari o‘rganiladi. Ushbu qatlamda ishonchli xulosa chiqarish uchun geografik va yozma manbalarni qiyoslash zarur. S. Qorayev va Z. Do‘simovning ishlari toponimlarni tizimli va tarixiy jihatdan o‘rganishning muhimligini ko‘rsata oladi.

Uchinchisi — lingvokulturologik qatlam. Bu qatlam toponimning xalq xotirasi, tabiiy muhitni idrok etish va madaniy tasavvurlar bilan bog‘liq jihatlarini o‘z ichiga oladi. Samarqand va Buxoro kabi tarixiy shahar nomlarining bugungi madaniy mazmuni ushbu qatlam doirasida o‘rganilishi mumkin.

Xorazm toponimlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda o‘simlik, hayvonot dunyosi va iqlim xususiyatlari bilan bog‘liq nomlarning tahlil qilinishi tabiiy-geografik omillarning toponimlar shakllanishidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Bu natijani umumlashtirganda, geografik nomlarning ma’nosini tushunishda tabiiy muhit bilan birga tarixiy va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish kerakligi ayon bo‘ladi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlanadi: toponimning tarkibiy tahlili bilan uning tarixiy etimologiyasi o‘rtasida farq mavjud. Nomning tarkibidagi so‘zlarni ajratish va ularning hozirgi ma’nolarini ko‘rsatish dastlabki tahlil bosqichidir. Biroq nomning qachon, qanday sharoitda va nima sababdan yuzaga kelganini aniqlash uchun

kengroq dalillar talab qilinadi. Shu sababli ilmiy maqolada ehtimoliy izohlar qat’iy tarixiy xulosa sifatida berilmasligi lozim.

Lingvokulturologik tahlil esa toponimning madaniy ahamiyatini uning tarixiy kelib chiqishi bilan aynanlashtirmasdan o‘rganishga imkon beradi. Geografik nomlar xalqning o‘z hududini idrok etishi, tarixiy voqealarni eslab qolishi va madaniy merosni avlodlarga yetkazishida ishtirok etadi. Biroq bu vazifalar har bir toponimda bir xil darajada namoyon bo‘lmaydi. Shunday qilib, o‘zbek toponimlarini kompleks o‘rganish struktur-semantik, tarixiy-etimologik va lingvokulturologik tahlilni o‘zaro uyg‘unlashtirishni talab etadi. Bu yondashuv geografik nomlarning lisoniy tuzilishi va madaniy mazmunini dalillarga tayangan holda izohlash imkonini beradi.

XULOSA

O‘zbek toponimlari milliy tilning tarixiy qatlamlari, xalqning tabiiy muhit bilan munosabati va madaniy xotirasini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ularning semantik xususiyatlari geografik obyektning tabiiy belgilari, suv manbalari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, etnik tarkib hamda inson faoliyati bilan bog‘liq holda shakllanib kela oladi desak adashmaymiz.

S. Qorayev va Z. Do‘simovning ilmiy ishlari o‘zbek toponimikasini tizimli, struktur-semantik va tarixiy-lisoniy jihatdan o‘rganish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Xorazm hududi toponimlariga oid tadqiqotlar esa geografik nomlarning tabiiy muhit va hududiy xususiyatlar bilan munosabatini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari toponimlarni o‘rganishda uchta yo‘nalish — nominativ-semantik tahlil, tarixiy-etimologik tekshiruv va lingvokulturologik izohni o‘zaro farqlash hamda uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Nomning tarkibiy qismlarini aniqlash uning tarixiy kelib chiqishini to‘liq isbotlamaydi; xalq orasida tarqalgan izohlar mustaqil dalillarsiz ilmiy etimologiya sifatida qabul qilinmasligi kerak.

Kelgusida o‘zbek toponimlarini tarixiy xaritalar, yozma manbalar, hududiy tadqiqotlar va mahalliy og‘zaki tarix materiallari asosida kengroq o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lib, bunday yondashuv geografik nomlarning shakllanish tarixini

aniqlashtirish, o‘ziga xos ajratib bo‘lmas jihatini, milliy-madaniy merosni saqlash va o‘zbek tilining tarixiy qatlamlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.Qorayev. Toponimika: O’quv qo’llanma. – T.: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2006. – 320 b.
2. Z.Do’simov. Xorazm toponimlari. Toshkent: Fan, 1985. – 104 b.
3. Mirakmalov M. T., Urazbayev B. B. Xorazm viloyatining fauna va florasi, iqlim xususiyatlari bilan bog‘liq toponimlari. – 2022. – № 2.
4. Egamov X., Do‘simov Z. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: O ‘qituvchi, 1977. – 174 b.
5. H. Hasanov. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1965. – 81 b.

ELEKTRON MANBALAR

1. ZiyoNET — Ta’lim portali. URL: https://ziyonet.uz/
2. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron katalogi. URL: https://natlib.uz/
3. Urganch davlat universiteti elektron kutubxonasi. URL: https://akbt.urdu.uz/
4. Tadqiqot.uz — ilmiy maqolalar portali. URL: https://tadqiqot.uz/